



## YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH

*Yunusov Ibrohimjon Nishanovich*

*Fargona viloyati Quva tumani kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Yo'l bu transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan yer mintaqasi yoxud sun'iy inshoot yuzasi. Yo'l o'z ichiga avtomobil yo'llarini (umumiyl foydalanishdagi va idoraviy avtomobil yo'llarining) shaharlar, shaharchalar va qishloq yo'llarini, shuningdek, shahar elektr transporti yo'llarini oladi.

**Kalit so'zlar:** Yo'l harakati xavfsizligi, transport vositalari, trotuar, yolkalar, piyodalar, texnik vositalar.

### KIRISH

Yo'l harakati xavfsizligini tashkil etish — qo'llanishi standartlar bilan tartibga solinadigan hamda yo'l harakatini tashkil etish loyihalari va sxemalarida nazarda tutilgan boshqarishning texnik vositalaridan hamda ularning konstruksiyalaridan kompleks foydalanish asosida amalga oshiriladi.

0'zbekiston Respublikasining butun hududida yo'l harakatining yagona tartibi «Yo'l harakati qoidalari» bilan belgilanadi. 0'zbekiston Respublikasi yonlarida transport vositalarining o'ng taraflama qatnovi belgilanadi.

«*Yo'l harakati xavfsizligi to'grisida*»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasi.

Mamlakatimizning iqtisodiy hayoti transport vositalari taraqqiyoti bilan cham barchas bog'liq. Bugungi o'zbek avtomobilsozligi xalq xo'jaligining eng ilg'or yutuqlaridan biriga aylangan. Respublikamiz shahar va tumanlari ko'chalari, yo'llari avtosanoatimiz korxonalarida ishlab chiqarilgan turli rusumdag'i mashinalar bilan tobora gavjum bo'lib bormoqda. Ayni paytda yo'l harakati ham murakkablashib borayotganligi sizga ma'lum. Transport vositalarining ko'payayotganligi va yo'l harakati tig'izlashib borayotganligi haydovchilar va



piyodalardan amaldagi qoidalarga so‘zsiz itoat etishni talab etadi. «Yo‘l harakati qoidalarbni o‘rganish, bilish va ularga qat’iy amal qilish har bir kishining burchidir.

## YO‘L ELEMENTLARI

Mamlakatimiz shahar va tumanlarida transport vositalari ko‘payib borgani sari yo‘llarning tarmoqlari va holatiga e’tibor kuchaydi. Shu nuqtai nazardan yo‘lning aslida nima ekanligini, u qanday turkumlarga bo’linishi haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish foydadan xoli emas. Yo‘l bu transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan yer mintaqasi yoxud sun’iy inshoot yuzasi. Yo‘l o‘z ichiga avtomobil yo‘llarini (umumiyligi foydalanishdagi va idoraviy avtomobil yo‘llarining) shaharlar, shaharchalar va qishloq yo‘llarini, shuningdek, shahar elektr transporti yo‘llarini oladi. Birgina mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrining o‘zida katta masofani egallagan tramvay yo‘li mavjud. Bu yo‘ldan kuniga minglab odamlar o‘qish va ishga borib keladilar. Shuningdek, transport vositalarining yirik tarmog‘i hisoblangan metropoliten, temir yo‘l ham katta ahamiyatga ega. Tramvaylar hamda poyezdlar qatnovchi yo‘llarga beton shpallar yotqizilgan bo‘ladi. Turlicha avtomobil yo‘llari esa asfaltlangan, toshli va tuproqli bo‘lishi mumkin. Tekis qoplamlali yo‘llarda harakatlanish tuproqli va o‘ydin-chuqur yo‘llarga nisbatan ravon kechadi.

Yo‘llar — xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik turlarga bo‘linadi. Mahalliy ahamiyatga ega yo‘llarda maxsus yo‘lkalar bo‘lsa, ular asosan piyodalar qatnovi uchun mo‘ljallangandir.

Trotuar va yolkalar piyodalar, nogironlar aravachasi qatnoviga moslashtirilgan bo‘ladi. Piyodalar va yo‘lovchilarning maxsus ajratilgan yo‘lkalardan, o‘tish joylaridan tashqari yo‘llardan yurishga, harakatlanishlariga ruxsat etilmaydi. Transport vositalari uchun ajratilgan va ularda hech qanday kesib o‘tish belgisi bo‘lmagan joylardan o‘tish hayot uchun xavflidir. Qoidaga xilof tarzda harakatlanish yo‘l-transport hodisasining sodir bo‘lishiga, kishilarga turlicha tan jarohati yetkazilishiga va hatto o‘lim hodisasiga ham olib kelishi mumkin.



«Yo‘l harakati qoidalari»ning 2-bobida avtomagistral 5.1 belgi bilan belgilangan yo‘l, deb ta ’riflanadi. Mazkur yo‘l avtomobil transportining seroqim, bosh katta yo‘li hisoblanadi. Avtomagistrallarda piyodalar, uy-hayvonlari, ot-aravalar, velosipedlar, mopedlar, traktorlar va o ‘zi yurar mashinalar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko‘ra tezligi soatiga 40 kilometrdan kam bo‘lgan transport vositalarining harakatlanishi qoidaga muvofiq taqiqlanadi. Shuningdek, ruxsat etilgan to‘la vazni 3,5 tonnadan ortiq bolgan yuk avtomobillariga birinchi va ikkinchi bo‘laklardan boshqa bo‘laklarda harakatlanishi maxsus to‘xtab turish maydonchalaridan boshqa joylarda to‘xtash; ajratuvchi bo‘lakning texnik uzilish joylariga kirish va qayrilib olish; orqaga harakatlanish; transport vositasini o‘rganish uchun boshqarish mumkin emas. Qatnov qismida majburiy to‘xtaganda haydovchi transport vositasini Qoidalarning 9-bobi talablariga muvofiq belgilashi va bunday holatlar uchun mo‘llallangan bo‘lakka (qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o‘ng tomonga) olib chiqishning barcha choralarini ko‘rishi kerak. Tuproqli yo‘lga nisbatan qattiq qoplamlari (asfalt va sement betonli, tosh yotqizilgan va shunga o ‘xshashlar), kesilayotgan yoki tutashgan yo‘lga nisbatan yo‘l, yoxud yondosh hududdan chiqadigan yo‘lga nisbatan har qanday yo‘lga esa **asosiy yo‘l** deb aytiladi. Ammo shuni esda tutish kerakki, boshqa yoilarning, masalan, ikkinchi darajali yoMning bevosita chorrahaga tutash qismining qoplamlari bo‘lishi uni asosiy yo‘l bilan teng huquqli qilmaydi.

Avtomobil y o iin in g temir y o ‘l bilan kesishgan joyi «Temir yo‘l kesishmasi» deb ataladi. Temir yo‘l kesishmasi yo‘lning temir yo‘l bilan bir sathda kesishgan joyi hisoblanib, undan maxsus o‘tishga ruxsat etuvchi belgilar, svetoforming yashil chirog‘i yonganda, temir yo‘l nazoratchisining o‘tishga ruxsat etuvchi ishorasi bo‘lgandagina kesib o‘tish mumkin. Shlagbaum tushirilganda, maxsus svetoforming qizil chirog‘I yonganda ogohlantiruvchi ishoralar berilganda kesishmada harakatlanish qat’iyan man etiladi. Qoidani buzganlarga ma’muriy va jinoiy jazo choralar qo‘llaniladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2000-yil 11-dekabrdagi 472-sod qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., 12-sod, 75-modda).
2. Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2006-yil 21-noyabrdagi 241-sod qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 11-sod, 87-modda).
3. M. Rixsiyev, Q. Karimova. Yo‘l harakati qoidalari: 8-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo’llanma / O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi IIV yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi «Avtohamroh» jurnali;— Toshkent: Yurist-media markazi, 2012.
4. Yo’llarimiz bexatar bo’lsin desangiz. O‘quv qo’llanma. / T. Mullaboyev, F. Sodiqov. -T.: O‘zbekiston, 2011.